

## OYBEKNING "NAVOIY" ROMANIDA TEMURIYLAR DAVRI TALQINI

*Normuminov Laziz Yuldash o'g'li*  
*Nizomiy nomidagi TDPU talabasi*

**Annotatsiya.** Oybek temuriyzodalar taqdiri bilan qiziqqan, ular taqdiridan buyuk olamning adolatli xulosani ko'ra olgan adib hisoblanadi. "Navoiy" romanini yaratishda shoirning ma'lum bir davrini qalamga oladi, yozuvchi tanlagan aynan shu davr Navoiy siyosini hamda siyratini ko'rsatadigan ulkan davrni o'z ichiga olgan.

**Kalit so'zlar:** davr qahramonlari, ijtimoiy muhit, madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, falsafiy qarashlari, falsafiy qarashlar.

**Annotation.** Oybek is a writer who is interested in the fate of the Timurids, and is able to see a fair conclusion of the great world from their fate. In the creation of the novel "Navoi", he writes about a certain period of the poet, and the writer chose this period to create a great period that shows Navoi's politics and poetry. containing

**Key words:** heroes of the era, social environment, cultural-educational, socio-political activity, philosophical views, philosophical views.

**Аннотация.** Айбек – писатель, интересующийся судьбой тимуридов, способный увидеть в их судьбе справедливый вывод большого мира. В создании романа «Навои» он пишет об определенном периоде поэта, и писатель выбрал этот период, чтобы создать великий период, который показывает политику и поэзию Навои.

**Ключевые слова:** герои эпохи, социальная среда, культурно-просветительская, общественно-политическая деятельность, философские воззрения, философские воззрения.

Oybek Navoiy romanini yaratguncha bo'lgan davrda yozgan asarlarida davr qahramonlarini orqali shu makon ijtimoiy muhitini yoritish va unga xalq vakillari tomonidan munosabat berish orqali o'z maqsad va g'oyalarini berib borgan. Aynan Navoiy romanini yaratish uchun yozuvchida kuchli tajriba hamda Navoiy siyosiga chuqur ehtirom mavjud edi. Yozuvchining shoirga bo'lgan hurmatini uni she'rlaridagi Navoiy timsolida ham ko'rish mumkin.

Oybek o'zaro taxt talashishlar orqali o'zlari ham o'sha davrdagi xalqni ham urush olovida qovurgan temuriylar davridagi ijtimoiy muhit mohiyatini aks ettirish, Husayn Boyqaro qurgan saltanatdan Navoiy taratgan yorug'lik nurlarini kitovxonlarga ulashish, uzoq o'tmish manzaralarini jonli xarakterlar orqali ko'rsatib berish kabi vazifalarni o'z zimmasiga olgan mahoratli, keng mushohadali yozuvchi sanaladi.

Oybek temuriyzodalar taqdiri bilan qiziqqan, ular taqdiridan buyuk olamning adolatli xulosani ko'ra olgan adib hisoblanadi. Bu uning Amir Temur haqida bir asar yozish maqsadida ekanligini ko'rsatadi.

Oybek "Navoiy" romanini yaratishda shoirning ma'lum bir davrini qalamga oladi, yozuvchi tanlagan aynan shu davr Navoiy siyosini hamda siyratini ko'rsatadigan ulkan davrni o'z ichiga olgan.

Yozuvchi romanda 1469- yilning ko'klamidan 1501 -yilning yanvarigacha bo'lgan o'ttiz ikki yillik voqealarni tasvirlagan. Bu davrda Husayn Boyqaro podsholigi boshlangan edi. Husayn Boyqaro davrida eng muhim siymolardan biri, o'sha davr ijtimoiy muhitida o'chmas iz qoldirgan shaxs Navoiy obrazini yoritish edi.

Navoiy qizg'in madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatda tasvirlanadi. Donishmand va tadbirkor Navoiy marhamatli va talabchan ustoz, madaniyat-ma'rifat va obodonchilik ishlarining rahnamosi, insof diyonat, adolat himoyachisi, mamlakat va xalq osoyishtaligining posboni sifatida namoyon bo'ladi. Oybek Navoiy obrazini yaratishda uni mutafakkir, shoir va davlat arbobi sifatidagi faoliyatini uyg'unlashitirib tasvirlaydi. Navoiy mutafakkir, shoir va olim hamda davlat arbobi sifatida o'z ichki imkoniyatlaridan unumli foydalanganini asarda mukammal ko'rsatib berishga harakat qiladi. U davlat va idora usulida mustahkam tartib o'rnatish va ayrim isloxtalar o'tkazish yo'lida jon kuydiradi. Nizo va adovatlarni bartaraf etishga urinadi. Qalbini ishonch va umid tark etmagan Navoiy tobora tanazzul botqog'iga botib borayotgan Husayn Boyqaro saltanatida kechayotgan voqealar mantig'ini teran anglaydi.

Yozuvchining Navoiy romani Navoiyning maqsadi, uning xalq oldidagi mas'uliyati, teran fikrlari va nozik didi orqali yuzaga kelgan falsafiy qarashlarini davomiylik ta'kidlaydi.

Buyuk adabiyotshunos Naim Karimov: "Oybek qalamiga mansub roman va qissalar, qaysi davr hayotidan olingan bo'lmasin, adib shu davr hayotini mukammal o'rgangan, ayniqsa, tarixiy davr va tarixiy shaxs hayoti bilan birlamchi manbaalar asosida yaqindan tanishgan yozuvchi"- deb ta'kidlaydi.

Oybek romanida Navoiy biografiyasi va taqdiri orqali yozuvchi ilg'or g'oyalarni shunchaki tasdiqlash yo'lidan bormaydi. Balki xarakterlarning rivojlanishi orqali tasvirlanayotgan davr mohiyati va ruhi, tarixning muhim pallasidagi millat kishisining o'zlikni anglash yo'lidagi intilishlarini ifoda etishga qaratilgan.

Romanda Navoiy obrazini aynan xalqparvar sifatida tasvirish birinchi planga chiqarilgan. Shuningdek, ezgulik va yovuzlik, ma'rifat va jaholat orasidagi kurash yoritilgan. Oybekning ulug'vorlik haqidagi estetik ideali ma'lum darajada mutafakkir olimning guruhlar ustidan oddiy xalqqa tayanib g'alaba qilishi orqali yuzaga chiqadi.

Navoiy ulug'vorlik va mardonalikni o'zida mujassamlashtirgan nodir shaxs bo'lgani bilan unda ham g'azablanish, adolatsizlikka qarshi nafrat ifodasi "ajdarnafs", "darranda", "gazanda", "bo'rilar", "itlar", "chirkin maxluqlar", "iflos pashshalar", "johillarning qo'llarini kesmoq zarur" degan ifodalarida uning haqsizlikka qarshi ulkan kurashchi ekanligi ko'rsatishga asos bo'ladi.

Navoiyning adolatning keskir quroli bilan qurollangan shaxs sifatida namoyon bo'lishida Majididdin va uning tarafdorlari qo'rquvdan titrab, tillari kalomga kelmay qoladi.

U podshoh huzurida hukmdorning o'jarligini sindirish uchun shunday shiddat, jasurona ohang bilan so'zlaydiki, hukmdor ham har qanday e'tirozdan ojiz qoladi.

Oybek o'zi tilamagan holda shohni "qoplon"ga uning atrofidagi amaldorlarni "it"ga qiyoslashga majbur edi. Agar jiddiy e'tibor berilsa, romanning aksariyat qahramonlari ulug' bir taxlika va qo'rquv saltanatining zalvori ostida harakat qiladilar.

Romanda davrni yoritishdagi bir muncha qo'rqinch va tahlika sezilib turadi, bu holat yozuvchining o'zi yashayotgan real hayotdagi qo'rquv bilan uyhunlashib ketgan deb o'ylash mumkin bo'ladi.

Masalan, Arslonquldan Dildorga xabar keltirgan folbin kampir atrofga alanglab sekingina so'zlaydi. Hayajonini bosolmagan Dildorni: "Hoy, sekin gapir!... Jinni bo'ldingmi? Qayerdasan?" - deya ogohlantirar ekan, darichani yopib qo'yib, shivirlagan holda so'zlaydi. Hatto vahimaga tushib, zinhor birovga og'iz ochma, - deya ta'kidlaydi. Dildorning: "Xat bermadimi sizga?" - degan so'rovga: "Til zindonga sudraydi, xat dorga eltadi, bolam!" - deya bir qadar o'kinish va jafoni bo'yniga olgan kishiga xos vazminlik bilan javob beradi. (228 b.)

Yoki bu misolda: Dildorga g'amg'o'rlik qilish ilinjida Sultonmurod To'g'onbekning dargohiga bosh urib kelganida Aloiddin Mashhadiy, mavlono Shahobiddin va boshqa amaldorlar davrasida o'tirgan To'rg'onbekday odam ham yurt ulug'larining pinjiga qanchalik kirib olgan bo'lishiga qaramasdan, dabdurustdan aniq javob ayta olmaydi.

O'sha davrning aynan muhitini ko'rsatib berish yana bir obraz Xo'ja Afzalni navoiy bilan suhbatida o'z aniq ifodasini topadi.

Xo'ja Afzal Navoiy bilan suhbatda: "Hirotdagi mash'um hodisalarni aytishdan til ham cho'chiydi", - deydi chuqur xo'rsinib. (275 b.) Eshik og'a Boboali Haydarni muomalada "tilga ehtiyot bo'lish"likka chaqiradi (327 b.)

XV asr voqea-hodisalarini badiiy tasvirida xuddi adib qalbidagi musiqiy ohangni tinglaganlek bo'lasiz, chunki Oybek tomonidan his etilgan bu holat romanga o'ziga xos haroat va halovat bag'ishlaydiki, kitobxon romandagi barcha muhabbatga yo'g'rilgan yoshlik kuyini, zamonadan charchagan xasta ko'ngilning hazin navolarini, turli jang sadolari bilan birga tinglaydi.

Yozuvchi "Navoiy" romanida tarixiy haqiqat va badiiy haqiqatni uyg'unlashtira olganligi uchun "Navoiy" romanida faqat hayotiy voqealar tasvirigina berilgan ekan, degan xulosaga kelish o'rinli bo'lmaydi.

Oybek iqtidori, himmat va g'ayrati, ilhom bulog'ining mahsuli bo'lgan "Navoiy" axloqiy-siyosiy, ijtimoiy-falsafiy romani adib xayolining ko'rkam chamanzoridan terilgan go'zal guldastadir. "Navoiy" romani razolatga qarshi shafqatsizlik bilan javob berishni inkor etuvchi, aql va tafakkur ustunligini ulug'lovchi zamona zulmi, ta'qib va qiynoqlari, adolatsizliklarini ayblovchi hukmnamogina emas. Hasadgo'ylar bilan kurashishni o'ziga noloyiq deb bilgan,

insoniy g'ururi va qadri uchun nuqson deb hisoblangan, bo'ysunmas qalbidagi yuksak tuyg'ularning erkin zamona zanjirband eta olmagan ulug' insonning kelajak nasllarga qoldirgan munosib tuhfasidir.

Navoiy obrazida adolat va buyuk insonparvarlik g'oyalari mujassam. U amalga oshirayotgan har bir ishidan el-yurt manfaati, mamlakat tinchligi va xalq osoyishtaligini ko'zlaydi. Ulug' mutafakkir o'z dono maslahatlari bilan shohga to'g'ri yo'l-yo'riqlar ko'rsatgan bo'lsa, amaliy faoliyatida insonparvarlik g'oyalarini amalga oshirgan. Oybek "Navoiy" romanida ulug' mutafakkir xarakterining shu jihatlarini mahorat bilan tasvirlay olgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yoqubov H. Oybek lirikasida G'oyaviylik va mahorat. –T.: Fan, 1963
2. Yoqubov H. Adibning mahorati. -Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti , 1965
3. Karimov N. Oybek. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi. 6-jild. – T., 2003
4. Karimov N. Oybek. Mashhur o'zbek adibining hayoti va ijodidan lavhalar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1985.
5. Sabriddinov A. Oybekning she'riy mahorati. –T.: Fan, 2006.
6. Oybek. Navoiy. Roman. T.: O'qituvchi, 1985
7. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016.